



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kuryazova Xosiyat

*Toshkent shahri Shayxontohur tuman
kasb-hunar maktabi biologiya fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya fanining bugungi kundagi ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, biologiya fanini professional ta'lim tizimidagi o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'tish usullari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: biologiya, texnologiya, interfaol metodlar, professional tizim, o'quvchi, o'qituvchi, maktab, insulin, odam, rudiment, Gregor Mendel, nasl-nasab, nazariya, hujayra, fakt, DNK, nevrologlar, kofein, miya, bateriya.

Аннотация. В этой статье рассматривается важность биологии сегодня. Также студентам системы профессионального образования биологии рассказали о методах перехода с использованием современных технологий.

Ключевые слова: биология, технология, интерактивные методы, профессиональная система, студент, учитель, школа, инсулин, человек, рудимент, Грегор Мендель, родословная, теория, клетка, факт, ДНК, нейробиологи, кофеин, мозг, батарея.

Abstract. This article discusses the importance of biology today. Also, the students in the professional education system of biology were told about the methods of transition using modern technologies.

Keywords: biology, technology, interactive methods, professional system, student, teacher, school, insulin, human, rudiment, Gregor Mendel, pedigree, theory, cell, fact, DNA, neuroscientists, caffeine, brain, battery.

Biologiya (yunoncha βίος, bios, «hayot»; va λόγος, logos, «bilim») hayot va u bilan bog'liq masalalar tadqiqotidir. U empirik fanning jonli organizmlarning tuzilishi, funksiyalari, o'zgarishi, kelib chiqishi, evolyutsiyasi va o'lishini o'rganuvchi sohasidir. U turli organizmlarni saralaydi, ularning ishlashini, turlarning paydo bo'lishini, ularning o'zaro va atrof-muhit bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Biologiya botanika, zoologiya, fiziologiya kabi turli ostsohalarga bo'linadi. Biologiya tirik tabiat to'g'risidagi bilimlar tizimini birlashtiruvchi fan sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bu fanda ilgari o'rganilgan dalillar tarixiylik nuqtai nazaridan ma'lum tizimlarga keltiriladi va ularning yig'indisi organik olamning asosiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon yaratadi. Ana shu qonuniyatlar asosida tabiatdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish va qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi.

Biologiyada boshqa fanlardagi kabi ko'p muammolar, o'z yechimini kutayotgan masalalar, tirik tabiat sirlari mavjud. Bu muammolar birinchidan molekullarning tuzilishi va funksiyasini aniqlash: ikkinchidan, bir va ko'p



xujayrali organizmlarning rivojlanishi tartibga solish mexanizmlarini bilish; uchinchidan, organizmlar shaxsiy rivojlanishdagi irsiyat mexanizmlari, ya'ni oqsil biosintezidan xujayra hosil bo'lguniga qadar tabaqalanishni oydinlashtirish; to'rtinchidan, organizmlar tarixiy rivojlanishini aniqlash; beshinchidan, yerda hayotning paydo bo'lishi muammosini yechish va tajribada isbotlash; oltinchidan, insonlarning tabiatdagi ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirini bilish; yettinchidan odamning paydo bo'lishi bilan ochiq bo'lgan ba'zi muammolarni hal etishdan iborat, yuqorida qayd etilgan muammolarni yechish biologiya fani oldida turgan asosiy vazifadir. Lekin biologiya fani nazariy muammolarni yechish bilan cheklanib qolmasdan u juda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar yechishda ham faol ishtirok etadi. Biologiya fanini o'qitishda "Baliq skleti", "Venn diagrammasi", "kubik-rubik", "To'g'risini top" metodlaridan unumli foydalanish darsning yanada qiziqarli tashkil etilishiga yordam beradi. Turli metodlardan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratining qay darajada yuqori ekanligini ham ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya –bu tiriklik haqidagi fandir, tiriklini o'rganish har bir inson uchun ham qiziq, ham zarur ehtiyojdir. Ushbu fan bejizga, maktab davridan boshlab o'ratiilmaydi sababi har bir inson hech bo'lmaganda o'z atrofi, hayot tarzi haqida, sog'lom bo'lish uchun nima qilish kerakligi haqida, atrofida sodir bo'layotgan voqelarga nisbatan, hech bo'lmaganda qisqacha ma'lumotga ega bo'lishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Биология // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). —СПб., 1890—1907.
2. Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. —М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017.
3. А. Т. Гафуров. "Дарвинизм" Т. : «Укитувчи», 1992.
4. М. Тухтаев, А. Хамидов. "Экология асослари ва табиатни мухофаза килиш" Т. : 1994.
5. Биология. Библиографический справочник, К. : "Наукова думка" 1994. Грин. Н., Стаут. У., Тейлор. Д., «Биология» Москва «Мир» 1990 год.
6. Нуриллаев, Ж. Я. (1999). Оценка метафилактических мероприятий по отдаленным результатам хирургического лечения мочекаменной болезни у детей.